

## USTOZIMNING USTOZI

**Xolmatova Nigora Yakubovna**

*Qo`qon DPI katta o`qituvchisi, filologiya  
fanlari bo`yicha falsafa doktori*

Men professor No`mon Rahimjonovni ustozim Marhabo Qo`chqorovaning ustoz haqidagi iliq so`zlaridan, "Badiiy so`z estetikasi", "Badiiy asar biografiyasi" o`quv-qo`llanmalaridan o`qib anglaganman. Ustozim Marhabo Qo`chqorova ustozini No`mon Rahimjonovni yo`qlab borganlarida shogird olganliklarini u Qo`qondan ekanligini aytganda xursand bo`lgan ekanlar. O`zlarining oq fotihalarini berib, oq yo`l tilagan ekanlar. Shunda Marhabo Qo`chqorova ustozga "Shogirdimga uchta mavzu berdim, qaysi birida tadqiqot olib borishini so`radim. Bu mavzular "Abdulla Qodiriyning "O`tkan kunlar"ni Turkiyada o`rganilishi", "Abdulla Qahhor asarlarini germetevtik tahlil qilish", "Erkin A`zam badiiy publisistikasi" deb nomlangan. Shogirdim oxirgi mavzuni tanladi. Hozirda "Erkin A`zam badiiy publisistikasi" mavzusida tadqiqot ishini olib boryapti" degan fikrni aytganlarida. Ustoz shunday javob bergan ekanlar "Shogirding ishni boshlagan bo`lsa, publisistikasiga, asarlarini ham qo`shib tahlil qilsin va mavzuni "Erkin A`zam adabiy-estetik qarashlari" deb o`zgartirib bering, shunda sizlar Erkin A`zam fenomenini to`liq yoritib berasizlar. "Erkin A`zam badiiy publisistikasi" juda yaxshi mavzu tanlagan, lekin jurnalistikaga tortadi 10.00.02.- O`zbek adabiyoti. shifriga tushmaydi, degan e`tirozlar bo`lishi mumkin" deb o`z fikrlarni bergan ekanlar. Ustozim Marhabo Qo`chqorova menga telefon qilib, bu fikrlarni aytganlarida o`ylanib qoldim, "Bu mavzu kattalik qilmaydimi, himoyaga chiqishim uchun bir yil muddat qoldi (Tayanch doktoranturada 2-kurs edim)" deb e`tiroz bildirdim. Shunda Marhabo Qo`chqorova juda ko`p o`ylaganini, ustoz No`mon Rahimjonov fikrlari to`g`ri ekanligini aytdilar. Shundan so`ng ustozimning ustozini qimmatli fikrlari bilan mavzu boshqatdan byuletendae`lon qilindi.

"Erkin A`zamning adabiy-estetik qarashlari" mavzusida tadqiqot ishimi davom ettirdim. O`zbekiston Xalq Yozuvchisi Erkin A`zamni salkam 600 sahifalik "Ertalabki xayollar" publisistik to`plamidagi 1. Siyosat sayohat (Maqolalar va safarnomalar). 2. Shap-shap deguncha...(Fiqralar). 3. Yo`l-yo`lakay (Adabiy qaydlar). 4. Yondoshlar, zamondoshlar. (Portret va xotiralar). 5. Menimcha... Menimcha...(Suhbatlar) bo`limlaridagi maqolalarni tahlil qilib, "Shovqin" romani, "Farrosh kampirning tushi", "Shajara" dramalarini ham tahlil qildim. Erkin A`zamning estetik qarashlarini qo`limdan kelgancha angladim. Mavzuni 2022 yil 5- aprelda himoya qildim.

Ustoz No`mon Rahimjonovning ustozim Marhabo Qo`chqorovaga olimona va otalarcha bergan o`g`itlari, tavsiyalari bilan mavzu tasdiqlandi, himoya qilindi. Lekin menda bir armon qoldi. Ustozni borib ko`rish va u kishidan juda yaxshi, ibratli fikrlar olish nasib qilmadi. Ustozim Marhabo Qo`chqorova juda ko`p "ustozimni oldiga olib boraman" derdilar, lekin har safar poytaxtga borganimda ish ko`payib ketar, dissertatsiyani ko`rib chiqib, ishlash bilan band bo`lar edik. Marhabo Qo`chqorova menga topshiriqni berib, o`zlari fanlar akademiyasidagi ishlardan bo`shamas edilar...